



XORAZM SHEVALARIDAGI AYRIM IBORALARNI MAZMUNAN ADABIY TILDAGI IBORALARDAN FARQLASH

Shamuratova Malohat Ilhambekovna

*O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali o'zbek tili va adabiyoti fani bo'yicha
assistent o'qituvchi*

Аннотация: Данная статья основана на хорезмийских диалектах огузского диалекта. Некоторые словосочетания этого диалекта анализируются в сравнении с словосочетаниями узбекского литературного языка. Эта также доказывается приведением примеров из устной речи данного диалекта

Ключевые слова: диалект, огузский диалект, фразеология, лексика.

Annotation: This article is based on the Khorezm dialects of the Oghuz dialect. Some phrases in this dialect are analyzed in comparison with phrases in the Uzbek literary language. It is also proved by giving examples from oral of this dialect.

Keywords: dialect, dialect, Oghuz dialect, phraseology, lexicon.

Frazeologizmlarning shakllanish asoslari juda keng bo'lib, tilda muhim ifodaviy vazifalarni bajaradi. Frazeologik tizim tilning leksik va grammatik tizimlariga tayanadi. Frazeologizmlar leksemalardan tashkil topadi, o'sha tilning grammatik qurilishi asosida shakllanadi. Shu bilan birga frazeologizmlarning shakllanish xususiyatlari mavjud. Birinchi navbatda frazeologizmlarning yuzaga kelishi so'zlovchining obrazli-ekspressiv ifodalash ehtiyoji bilan bog'liq bo'ladi. U yoki bu tarixiy davrda u yoki bu milliy xususiyatlarni, narsa-perdmet, hodisalarni obrazli-ekspressiv ifodalash ehtiyoji tug'iladi. Qaysi davrda shunday ehtiyoj zarurati ko'p tug'ilsa, shunchalik frazeologizmlar ko'p bo'ladi.

Milliy o'ziga xoslik frazeologizmlarning grammatik qurilishida, leksik, stilistik, fonetik va semantik xususiyatlarida ham ko'rinadi. O'zbek tilida frazeologizmlarning ko'pchilik qismi shaxsning psixologik holatini, ichki kechinmalarini ifodalash zarurati asosida shakllanadi. Shuningdek, kasb-kor doirasida ham bir qator frazeologizmlar shakllanadi. Turli kasb-korga bog'liqligi jihatidan shakllangan frazeologizmlarning asosini esa erkin bog'lanmalar tashkil etadi. Bular nutq ehtiyoji bilan frazeologizmlashtiriladi.

Milliy o'ziga xoslik frazeologizmlarning grammatik qurilishida, leksik, stilistik, fonetik va semantik xususiyatlarida ham ko'rinadi. O'zbek tilida frazeologizmlar ma'no jihatdan shakllanadi. Frazeologizmlarning ma'no xususiyatlari ularni boshqa til birliklaridan farqlovchi asosiy belgilardir.

Frazeologizmlarda eksperssivlikka boy bo'lgan nutqiy vositalar bo'lib, ular orqali ifodalanadigan ma'nolar ko'p qirralidir va turli omillar asosida shakllanadi. Frazeologizmlarda so'zlovchining voqea, belgi, narsa-predmetga nisbatan bo'lgan



sub'ektiv ijobiy yoki salbiy munosabatlari o'z aksini topadi. Bu munosabat orqali frazeologizmlar nutqning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Chunki ibora anglatayotgan ma'no, ijobiy yoki salbiy, qo'pol yoki muloyim va bir nechta ma'no ottenkalariga ega bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, iboralar ularning semantik va stilistik xususiyatlariga tayanib qo'llanilgan uslubiy vositalar o'quvchida badiiy tilning shakl va mazmun tizimiga tag ma'no nozikliklariga alohida e'tibor va qiziqish uyg'otadi.

Frazeologizmlarning shakllanishida hamda nutqning ta'sirchanligini oshirishda frazeologik sinonimlar va variantlilik ham jozibali, obrazli ifodalanishda muhim til birikmalari hisoblanadi. Bunday holatni biz aynan o'zbek shevalaridagi iboralarda ham ko'rishimiz mumkin.

O'zbek tilining shevalarini o'rganishda, Sh.Shoabdurahmonov, F.Abdullayev, B.Jo'rayev singari olimlarning xizmatlari katta bo'lsa, aynan o'g'uz shevalari tadqiqotlari bo'yicha esa F.Abdullayevning davomchisi Otanazar Madrahimov ko'plagan izlanishlar olib borgan. Ushbu tadqiqotlarda ko'zga ko'rinadiki, Xorazm aholisi shevasi o'zbek adabiy tilidan ancha yiroq, shuning uchun ham ushbu hudud og'zaki nutqidagi leksik qatlam va frazeologizmlari ham o'zbek adabiy tilidan ancha farq qiladi va boshqacha tarzda talaffuz qilinadi.

Xorazm aholisi etnik sostavi va o'tmishdagi turli xalqlar va urug', qabilalar bilan munosabatlari jihatidan g'oyat darajada xilma xil va va murakkab bo'lgan. Tarixiy va wetnografikadabiyotda bir narsa ko'p martalab qayd qilingan [1.146-154-6.]

O'g'uz lahjasining leksilasi chuqur o'rganilib tadqiq qilingani tilshunosligimizda ma'lum, ammo aynan o'g'uz lahjasining Xorazm shevalaridagi iboralar hali to'liq holda to'planmagan va tadqiq qilinmagan. Ilmiy manbalarga ko'ra Xorazm hududi sheva tiliga ko'ra ikki guruhga bo'linadi ya'ni, Janubiy Xorazm shevalari va Shimoliy Xorazm shevalari. Shuningdek, Xorazm shevalari leksikasini tadqiq qilgan olim Otanazar Madrahimov esa quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi. "Tarixan o'zbek xalqi sastaviga kirgan va o'g'uz etnik gruppasiga aloqador bo'lgan aholi Xorazm oblastining yettita rayoni territoriyasida yashaydi. Hammasi bo'lib oblasda sakkista rayon bor: Xiva, Urganch, Shovot, Qo'shko'pir, Yangariq, Bog'ot, Hazorasp rayonlarida tarixan o'g'uz deb atalgan o'zbeklar, bir rayon territoriyasida-Gurlan rayonida qipchoq o'zbeklari yashaydi. [2. 11-bet]

Xorazm viloyatidagi o'g'uz lahjasining vakillari nutqidan olingan bir necha iboralarni keltirib o'tamiz. Masalan: "Choqqi dastalamoq" iborasi tunni bedor o'tkazish ma'nosini anglatib, o'zbek adabiy tilidagi "Yulduz sanamoq", "Toqi sanab chiqmoq" iboralariga teng keladi. Bu iboraning ahamiyatli tomoni shundaki, sheva variantida sovuqdan uxlay olmay, tunni bedor o'tkazish nazarda tutiladi. Bu iborani



asosan Qo‘shko‘pir, Xiva, Urganch aholisi nutqida ishlatiladi. Misol: O‘ying dum so‘viq akan gechim bilan choqqi dastalab chiqdim. (Xiva tuman so‘zlashuv nutqidani).

“**Og‘zi qonoyincho so‘llidi**” iborasi ko‘p gapiradi degan ma‘noda qo‘llanadi bu ibora “**og‘zi angakini yedi**” tarzida ham qo‘llanadi. O‘zbek adabiy tilidagi, “*Labi-labiga tegmaydi*” iborasi bilan ma‘nodoshlik hosil qila oladi. Ushbu frazeologizm ko‘proq farosatsizlikni ko‘ratish uchun ishlatiladi, bu esa uning madaniyat bilan bog‘liqligini ta‘minlaydi. Jumladan: *Quloqlorim og‘rip getti mni gappinnan, uzam og‘zi qonoyinch o so‘lladi oxir* (Shu sheva og‘zaki nutqidani)

Shuningdek, shimoliy Xorazm shevalarida “**Ichi yoniq**” iborasi mavjud bo‘lib, hasadgo‘y degan ma‘noni anglatadi. Ushbu ibora Xorazm aholisi orasida ko‘p qo‘llaniladi. Ushbu iboraning ba‘zi o‘rinlarda “yoniq” tarzida ham qo‘llashadi. Masalan: *Ha chiqoningni olg‘on moshinino ichi yoniqliq atip duripmison?* (Xorazm aholisi nutqidani)

O‘zbek adabiy tilidagi “*Tuyaning dumi yerga tekkanda*” iborasi hech qachon degan ma‘noni anglatadi. Xorazm o‘g‘uz lahjalarida huddi shu iboraning sinonimi Mavjud bo‘lib bu ibora “**Ikki bozor bir gayanda**” tarzida qo‘llaniladi. Masalan: (Opo qochon mongo sepichka apparasiz? Ikki bozor bir gayanda kizim)

“**Ongi qochqon**” iborasi esankiragan degan ma‘noni bildiradi. Ushbu ibora asosan es-xushli ammo ma‘lum sabablarga ko‘ra miyasi charchagan insonlarga nisbatan qo‘llaniladi. Mn: *Gulsaro yolg‘iz kizini ara baraman dap ongi qochdi bechoroni* (Qo‘shko‘pir shevasi).

“**Somonxonog‘o romozon oytti**” mutlaqo betasir, befoyda degan ma‘noni bildiradi. Gapirgan gaping ta‘sir qilmaydigan insonlarga nisbatan ishlatiladi. O‘zbek adabiy tilidagi “**toshga azon aytgan bilan barobar**” iborasiga teng.

“**Qog‘ozo o‘rolg‘on qontdin**” iborasi yangi, qo‘l tegilmagan degan ma‘noni bildiradi. O‘zbek adabiy tilidagi “*Uzilmagan gul*” iborasi bilan sinonim bo‘la oladi. Misol: *Poshshanani kizi 35 yosho girdi lekin hali qog‘ozo o‘rolg‘on qontdin yuripti.*

Shuningdek, “Somonxonog‘o ramazan oytgondin” “Toshga azon aytmoq”

“**Kajilik atish**” iborasi qaysarlik qiladigan insonlarga nisbatan qo‘llaniladi. O‘zbek adabiy tilidagi “*To‘nini teskari kiyib olmoq*” iborasiga ma‘nodosh bo‘la oladi. Ushbu ibora Xorazmning Xozarasp tumanida faol qo‘llaniladi. Bu iboradagi kaji so‘zi alogida leksika shaklida ham ko‘p ishlatiladi. Bu so‘z sifat so‘z turkumiga mansub bo‘lib, ma‘nosi qaysar.

Masalan: *Otom bilan so‘llashganda o‘ylonip so‘lla sal yerda kajilik atip durmosin.* (Xazorasp shevasi)

“**Holingni bil momoloq**” iborasi qo‘lidan kelmagan ishga urinish ma‘nosida qo‘llanadi. Bu iborani alohida jihati shundaki, u ko‘proq yoshi qari insonlar yoshlarning



ishini qilmoqchi bo'lganida, yoki endigina kasaldan sog'aygan insonning sog' odamlardek, ishlashga harakat qilganiga nisbatan qo'llaniladi. Ushbu ibora o'zbek adabiy tilidagi "Ko'rpangga qarab oyoq uzat" iborasiga yaqin ammo, adabiy tildagi bu iborada moddiy holat shevadagi iborada esa jismoniy holatga ko'proq urg'u berilgan. Misol: *Indi yosh amassan kampir, holingni bil momoloq didilaqu* (Shu sheva og'zaki nutqidan)

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, frazeologizmlar uslubiy - semantik jihatdan shakllangan obrazli til birliklari hisoblanib, nutqning emotsionalligi, ta'sirchanligini ifodalovchi vositalardan biridir.

O'zbek frazeologiyasining yangi muvafaqqiyatlarga erishuvida har bir kichik tadqiqot ham o'z samarasini berishi mumkin. Zero o'zbek shevalaridagi frazeologizmlar hali to'laonli o'rganilganicha yo'q.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Н.А.Аристов Заметки от этническом составе тюркских племен и народностей и об эхчисленности. СП.б 1897 Узбеки 146-154-бетлар
2. Otanazar Madrahimov O'zbek tilining o'g'uz lahjasi leksikasi O'zbekiston S.S.R. "Fan" nashriyoti Tosh.1973y. 11-bet
3. Mamatov A.E. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari: Filol. fan. dok. ...dis. – T., 1999. –321 b.
4. Mamatov A. Frazeologik stilistika masalalari. –T., 1991. -120 b.
5. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologiya lug'ati. -T.: O'qituvchi , 1978. -264 b.
6. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilida fe'l frazemalarning bog'lashuvi. –T.: Universitet, 1992. -126 b.
7. Tursunov U va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent, 1992. –B.149